

HOJI MUINNING SIYOSIY PUBLITSISTIKASI

Nilufar Kambarkulovna NAMAZOVA

Filologiya fanlari nomzodi

O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti

Toshkent, O'zbekiston

ПОЛИТИЧЕСКАЯ ПУБЛИЦИСТИКА ХАДЖИ МУИНА

Нилуфар Камбаркуловна НАМАЗОВА

Кандидат филологических наук

Университет журналистики и массовых коммуникаций Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

POLITICAL PUBLICISM OF HAJI MUIN

Nilufar Kambarkulovna NAMAZOVA

Candidate of Philological Sciences

University of Journalism and Mass Communications of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

UDC (УЎК, УДК):

050/070(09):323(092)(575.1)

**For citation (Iqtibos keltirish uchun,
для цитирования):**

Namazova N. K. Siyosiy publitsistikada
muammo sharhi// O'zbekistonda xorijiy tillar
— 2022. — № 2 (43). — B. 138-149.

<https://doi.org/10.36078/1653404685>

Received: February 02, 2022

Accepted: April 17, 2022

Published: April 20, 2022

Copyright © 2022 by author(s) and Scientific
Research Publishing Inc.

This work is licensed under the Creative
Commons Attribution International License
(CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqolada jadid ma'rifatparvarlaridan biri Hoji Muinning siyosiy publitsistikasi tahlil qilindi. Fevral inqilobidan keyin chop etilgan gazetalar, ularda bolsheviklarga bo'lgan munosabat, sho'rolar matbuotining tashkil qilinishi jarayonlari o'rganildi. Bu jarayonlarda jadid ma'rifatparvari Hoji Muinning siyosiy qarashlari matbuotda chop etilgan maqolalari asosida tadqiq qilindi. Uning Hurriyat gazetasidagi maqolalari, birinchi sho'ro gazetasining muharriri sifatidagi faoliyati o'rganildi. Garchi sho'ro hukumatining nashri bo'lgan gazetada bosh muharrir vazifasida ishlagan bo'lsa-da, u o'z maqsad-maslagidan qaytmagani maqolalari tahlili orqali ochib berildi. Hoji Muin siyosiy qarashlarini ifodalashda u bilan maslakdosh bo'lgan, ustoz, hamfikir bo'lgan Abdurauf Fitrat, Mahmudxo'ja Behbudiy, Sadridin Ayniy kabi ziyolilar faoliyatiga ham baho berildi. Ularning Samarqandda chiqqan "Hurriyat" gazetasi va "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida chop etilgan maqolalari tahlilga tortildi. Turkiston mustaqilligi uchun kurashgan jadid ziyolilarining sho'ro hukumati o'rnatilganidan so'ng ham millat manfaati yo'lida fidokorona xizmat qilganligi dalillar asosida ochib berildi. Sho'ro hukumatining jadidlarga munosabati, millat zoyolilarini qatag'on siyosati Hoji Muin taqdiri misolida ko'rsatib berildi. Jadidlar o'z siyosiy qarashlarini xalqqa targ'ib qilishda matbuotdan samarali foydalanishgani qayd etildi. "Hurriyat" va "Mehnatkashlar tovushi" gazetarida chop etilgan ayrim maqolalar ilk bor tahlilga tortildi.

Kalit so'zlar: jadidchilik; ma'rifatparvarlik; matbuot; siyosiy; sho'ro hukumati; publitsistika; gazeta; bosh muharrir; Turkiston.

Аннотация. В статье анализируется политическая публицистика Хаджи Муина, одного из джадидских просветителей. В статье рассматриваются газеты, вышедшие после Февральской революции, отношение джадидов к

большевикам, процессы организации советской печати. В этих процессах изучались политические взгляды джадидского просветителя Хаджи Муина на основе статей, опубликованных в печати. Изучены его статьи в газете “Хюррият” и его деятельность в качестве редактора первой советской газеты. Хотя он работал главным редактором газеты, издаваемой советским правительством, анализ его статей показал, что он не отказался от своей миссии. Оценивалась также деятельность таких интеллектуалов, как Абдурауф Фитрат и Махмудходжа Бехбуди, которые были его коллегами, учителями и сочувствующими в выражении политических взглядов Хаджи Муина. Проанализированы их статьи, опубликованные в самаркандской газете “Хюррият” и газете “Мехнаткашлар товуши”. Факты свидетельствуют о том, что джадидская интеллигенция, борющаяся за независимость Туркестана, самоотверженно служила интересам нации даже после установления Советской власти. Отношение советского правительства к джадидам и политику репрессий в отношении национальной интеллигенции иллюстрирует судьба Хаджи Муина. Утверждается, что джадида эффективно использовали средства массовой информации для распространения своих политических взглядов. Впервые были проанализированы некоторые статьи, опубликованные в газетах “Хюррият” и “Мехнаткашлар товуши”.

Ключевые слова: джадидизм; просвещение; печать; политика; советская власть; журналистика; газета; главный редактор; Туркестан.

Abstract. The article analyzes the political journalism of Haji Muin, one of the Jadid enlighteners, newspapers published after the February Revolution, attitudes toward the Bolsheviks and the formation of the Soviet press. In these processes, the political views of the Jadid enlightener Haji Muin were studied based on the articles published in the press. The study deals with the articles of Haji Muin in the Hürriyet newspaper and his activities as the editor of the first Soviet newspaper were studied. Through an analysis of his articles, the study reveals that he had not backed down from his mission although he worked as editor-in-chief of a newspaper published by the Soviet government. The activities of such intellectuals as Abdurauf Fitrat and Mahmudhoja Behbudi, his colleagues, teachers and sympathizers in expressing Haji Muin's political views were also evaluated. Their articles published in the Samarkand newspaper “Hürriyet” and “Mehnatkashlar ovozi” newspapers were analyzed. There is evidence showing that Jadid intellectuals fought for Turkestan's independence solely for the interests of the nation, even after establishing the Soviet government. The attitude of the Soviet government towards the Jadids and the policy of repression of the nation's intellectuals are illustrated by the fate of Haji Muin. It is mentioned in the article that Jadids used the media effectively to spread their political views. Some articles published in “Hurriyat” and “Mehnatkashlar ovozi” were analyzed for the first time.

Keywords: jadidism; enlightenment; press; politics; soviet government; journalism; newspaper; editor-in-Chief; Turkestan.

Kirish. O'tgan asrda 1917-yili fevral inqilobidan keyin yuz bergan voqealar to'liqini jadidlarni siyosiy maydonga chiqardi. Ularning bu faoliyati matbuotda ham o'z aksini topdi. Hurriyat orzusida bo'lgan ma'rifatparvarlar fevral inqilobidan keyin oshkora siyosiy faoliyatga

kirishdilar. “Najot”, “Hurriyat”, “Kengash”, “Turon” kabi ko‘plab gazetalar nashr qilinib, yuraklardagi so‘zlar tazyiqsiz aytila boshladi. Abdurauf Fitrat, Mahmudxo‘ja Behbudiy, Munavvar Qori, Abdulla Avloniy kabi publitsistlarning millatni birlashishga, Hurriyat uchun kurashga da‘vat qilib yozgan maqolalari matbuotda uzluksiz chop etilib turdi. Miyonbuzruk Solihovning yozishicha: “O‘lka bo‘yinch bo‘lib turgan turli qurultoylar, shahar idoralariga saylovlar, *uchreditelniy sobraniya* hozirliklari, oziq qo‘mitalarini tashkil qiluv va mahalliy ma‘murliklarga aralashuv kabi bir qator yangidan paydo bo‘lgan ishlar boshida shu ziyoli jadidlar ko‘rinadirlar” (19, 122). Ma‘rifatparvar Hoji Muin ham siyosiy jarayonlarda jurnalist, muharrir sifatida faol qatnashdi.

Asosiy qism. Fevral inqilobidan keyin mardikorlikdan vataniga qaytib kelgan Hoji Muin yurtidagi o‘zgarishlarni quvonch bilan qabul qildi. Mardikorlikdagi mashaqqatli hayot zahmatlarini chekib, mustabidlik alamlarini chuqurroq his etib:

**Omad az jabri falak bar mo zamoni mardikor,
Tolib Turkistoni mo go‘yo jahoni mardikor.**

Ya‘ni falak jabridan mardikorlar zamoni keldi va Turkistonimiz mardikorlar olamiga aylandi, deb yozgan publitsist tez orada o‘z maslakdoshlari safiga qo‘shildi. U Samarqandda Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat boshchiligidagi chiqayotgan “Hurriyat” gazetasida faoliyat yurita boshladi. Uning maqolalari gazetasining 23-sonidan boshlab chop etilgan. Endi Hoji Muin publitsistikasida avvalgidan madaniy-ma‘rifiy mavzu emas, balki ijtimoiy-siyosiy mavzuning yetakchi o‘rinni egallaganini ko‘ramiz. Bu paytga kelib ma‘rifatparvar publitsist siyosiy voqealarning sergak kuzatuvchisi va ishtirokchisiga aylandi. Bu uning maqolalarida yorqin aks etdi. “Ey, turkistonli turk o‘g‘lonlarim! Endi turingiz! Jaholat uyqusidan uyg‘oningizki, kichik qiyomat qo‘pdi!.. Agar bu chog‘da ham uyg‘onmay o‘zingizni asorat kishaningizdan, yoqangizni jaholat changalidan, yurtingizni dushmanlar tirnog‘indan ajratib qutulmasangiz, so‘ngra buyuk qiyomatda sizlarga tamug‘ yerindan boshqa yurt berilmas, zaqqum oshindan bo‘lak yemak yedirilmaski, rasvoi olam bo‘lursiz... Ey, suyuqli o‘g‘lonlarim! Uyg‘oningiz! Tong otdi, endi uxlamog‘ harom!” (11) deb yozadi publitsist “Yurt qayg‘usi” (Turkistonning fig‘oni) sarlavhali maqolasida.

Mazkur maqola Abdurauf Fitratning “Yurt qayg‘usi” sochmalariga “hamohang” tarzda yozilgan edi. Prof. Hamidulla Boltaboyev Fitrat o‘zi muharrirlik qilgan “Hurriyat” gazetasida sahifalarida e‘lon qilingan uch sochmasi va bir she‘rini “Yurt qayg‘usi” deb ataganini yozadi (2, 14). Fitratdan keyin Mirmuhsin Shermuhamedov ham shu sarlavha ostida maqola yozgan. Go‘yo nazmda muxammas bog‘langanidek, bu ikki jurnalist ham Fitrat sochmalaridan ta’sirlanib, “Yurt qayg‘usi” maqolalarini yozdi. Vatanni ozod ko‘rish, xalqni qullik zanjirlaridan xalos etish kabi yagona istak mualliflar qo‘liga qalam tutqazdi, uch isyonkor qalb egalarini jipslashtirdi.

Abdurauf Fitrat: “Ey ulug‘ Turon, arslonlar o‘lkasi! Senga ne bo‘ldi? Holing qalaydir? Nechuk kunlarga qolding?” deb yozsa, Mirmuhsin Shermuhamedov “Ey Turkiston! Sening shonli moziyingga hassos qalbim ila bosh egib, porloq va umidli istiqbolingga aniq fikrim ila ko‘z tikaman!” (15) deydi. Mirmuhsin Shermuhamedov va Abdurauf Fitrat o‘z maqolalarida farzandning onasiga — Vataniga bo‘lgan muhabbatini, uning deb chekayotgan faryodlarini ifodalasa, Hoji Muin

munligʻ onaning — Vatanning oʻz bagʻridagi farzandlariga boʻlgan mehrini, hasratlarini izhor etadi. Bir vaqtlar dunyoning maʼmur oʻlkasi sanalgan, endilikda xarobazorga aylanib qolgan yurt botir va chin oʻgʻloni Temur davrida koʻrgan baxtiyorligini qoʻmsaydi. Shu koʻyga tushishining asl sabablarini qidiradi. Bunga sabab keyingi avlodlarining ilm va maʼrifatdan uzoqlashgani, ota-bobolarining yoʻllaridan bormay, jaholatni ixtiyor etganliklari, oʻz dindosh va qondoshlarining qonlarini toʻkayotganliklari va bu bilan oʻz tomirlariga bolta urayotganliklarida deb biladi. “Mana bu ozgʻunlik va axloqsizliklari sababli bir-birlaridan ayrilishib boʻlak-boʻlak boʻldilar-da, yot tarafidan qulaygina yutildilar, oʻz istiqbollariga xotima chekdilar”, deydi. Shunday “noxulq” bolalari qilmishidan iztirobga tushgan onaizor — Vatan tangridan oʻz farzandlariga tavfiq va insof tilaydi, “...manim qoʻshnilarim intiboh azonini eshitib uygʻongʻon va oʻz saodatlari sari yugurmoqda boʻlgʻon holda, manim baxtsiz avlodim bir-birlari bilan nifoq va adovat kuchi bilan yoqalashib, oxiri horib, kuchsizlanib jaholat toʻshaginda hanuz uxlamogʻda, jonsiz gavgdalar kabi hanuz yotmogʻdalar”, deya faryod chekadi.

Publitsist mana shu tarzda, Turkistonning yotlar tarafidan “yutilishi” — Rossiya mustamlakasiga aylanib qolishining sababini koʻrsatib beradi. Mustabidlar changalidan chiqmoq uchun kurashish mavridi yetganligini, “har kimsaning nomai aʼmoli oʻz qoʻligʻa berilgan” fursatda uxlamogʻ “tamugʻ sari tushmak” bilan barobar ekanligini uqtiradi. Turkiston xalqlarini jaholat uyqusidan uygʻonishga, birlikka chaqiradi. Bu birlik va “intiboh” va birlikning naqadar muhimligi uning keyingi maqolalarida yanada aniqroq ifodalangan.

Hoji Muin “Shoʻroi islomiya va saylov” (20) sarlavhali maqolasida yozishcha, musulmonlar saylovda ikki firqaga ayrilib: “Shoʻroi islom” — boy, ulamolar jamiyati birinchi raqam bilan, “Zahmatkashlar ittifoqi” ikkinchi raqam bilan qatnashadilar. Saylov kunida “Shoʻroi islom” tomonidan “Zahmatkashlar ittifoqi” aʼzolariga nisbatan “koʻb vahshiyona harakatlar, qiynovlar, talon va takfirlar” uyushtiriladi, hatto, qurbonlar beriladi.

Hoji Muin oʻz maqolasida “Shoʻroi islom”ning saylov kunida qilgan vahshiyona harakatlarini qattiq tanqid qiladi. Maʼlumki, Samarqanddagi “Shoʻroi islom” tashkiloti Toshkentdagidan farq qilib, u Samarqand ulamolarini birlashtirgan edi. Saylovda “ikkinchi noʻmer” bilan qatnashgan “Zahmatkashlar ittifoqi”, Hoji Muin taʼkidlaganidek, “mehnatkash, faqir xalq jamiyati” hisoblangan. “Hurriyat” gazetasining 1917-yil, 4-avgustda chiqqan sonida bu jamiyatning tuzilganligi haqida shunday eʼlon berilgan: “Avgʻust 1 da shahrimizdagi musulmon ishchilardan ikki yuz kishi toʻplanib musulmon zahmatkashlar ittifoqi oʻtli bir jamiyat qurdilar” (4).

Gazeta muharriri Abdurauf Fitratning bu jamiyat haqida: “Ishchilar jamiyati ittifoq va ittihad etmak maqsadi bilan muhtaram Shoʻroi islom jamiyatigʻa vakillar yuborib dumadan oʻzlari uchun oʻn kishiga oʻrin istamish. Shoʻroi islom jamiyati (nechundir bilmadik) shundayin muhim bir taklifni rad qilmish” (4) deb yozadi. Buning sababini Hoji Muin “Zahmatkashlar ittifoqi”ga bir qancha jadidlarning kirganligida deb koʻrsatadi: “Shoʻroi islom tarafidan koʻb boylar va mullolar bechora nodon xalq orasida fitna solub “Zahmatkashlar ittifoqi” haqida qancha tuhmatlar qildilar... Oralarida bir necha yoshlar borligʻini bilib hammalarini jadidchi va kofir dedilar... “Zahmatkashlar ittifoqi”ning barcha aʼzosi va tarafdorlari xalq orasida jadid va kofirlikgʻa ot chiqargʻon edi”. Zahmatkashlar ittifoqini rad etgan “Shoʻroi islom” “Uy egalari”

nomli rus partiyasi bilan ittifoq tuzadi. “Sho‘roi islomning xatosi” sarlavhali maqolasida Fitrat bu jamiyatning faoliyatini tanqid qilib, uning rus partiyasi bilan ittifoq bo‘lib saylovda qatnashishi noto‘g‘ri ekanligini, bu birlikning oqibati musulmonlar haqiga zararli bo‘lishini ko‘rsatib beradi (5). Biroq Fitratning bu kuyinishlari kor qilmadi. Saylov kunida, Hoji Muin tasvirlaganidek, “Sho‘roi islom” tomonidan vahshiyona harakatlar yuz berdi. “Bir necha gunohsiz kishilar bir jamoa vahshiylar tarafidan haqsiz qiymalab tashlandilar”. Hoji Muin “Sho‘roi islom”ni vahshiylikda ayblar ekan, hukumatning beparvoligi va e’tiborsizligi ushbu voqealarning kelib chiqishiga sabab bo‘lganligini alohida ta’kidlaydi: “Ushbu taassuflik voqeada hukumatning ham tadbirsizligi sabab bo‘ldi. Chunonchi, hukumat saylov to‘g‘risida shunga muxolifat va nizo borlig‘ini bilib turib saylov kunida biror tadbir qilmadi. Ya’ni har uchastkada aqalli 20 nafar askar qo‘ymadi. Agarda hukumat tarafidan shunday tadbir qilinsa edi, munday voqeaga yo‘l qo‘yilmagan bo‘lur edi”, deydi.

Shuni aytib o‘tish kerakki, Mahmudxo‘ja Behbudiy va sal o‘tib “Hurriyat” gazetasiga muassislik qilgan Muhammadquli O‘rinboyevning nomlari mazkur gazetaning 36-sonida chop etilgan “Birlanchi no‘mer siyohasinda ko‘rsatilgan shahar dumasini nomzodlari” (“Sho‘roi islom” niki–N.N.) tarkibida e‘lon qilingan. Biroq “Sho‘roi islom” ro‘yxati bo‘yicha shahar dumasiga saylanishi Behbudiyning “Zahmatkashlar ittifoqi”ga qarshi bo‘lganligini ko‘rsatmaydi. Sadridin Ayniy Behbudiyning “ulamo va eski fikrlilarni yoshlar bilan yaqinlashdurmakchi bo‘lib, “Ulamo” orasig‘a” kirib ishlaganligini yozadi (17). “Sho‘roi islom” ismi bilan yurgan u vaqtdagi “Ulamo” jamiyati Mahmudxo‘janing oliy fikrlarining hech biriga amal qilmadi... ..inqilob asnosida Mahmudxo‘ja “Zahmatkash ittifoq” jamiyatig‘a ruh va fikr berib turdi”, deydi.

Hoji Muin publitsistning “Hurriyat” gazetasida chop etilgan keyingi maqolalari uning boshleviklarga munosabatini, bu borada o‘z maslakdosh do‘stlari bilan hamfikir ekanligini ko‘rsatadi.

Abdurauf Fitratning 1917-yilda “Rusiyada yangi bir balo bosh ko‘tardi, bolshevik balosi”, deya xavotir bilan yozadi (1). Ma’lumki, jadid ziyolilari bolsheviklarning xatti-harakatlari, maqsadlari bilan 1917-yilgacha ham yaxshi tanish edilar. Jumladan, 1906-yilda Mahmudxo‘ja Behbudiy “Bularning boshlucha murodi hozirgi barcha zakun, mulkiyat qoidalarini butun buzub, mol va yerlarni hama xaloyiq o‘rtasida musoviy etmoqchidir... Har holda bu partiyaning murodi mumkin loyiqa yoyinki xayoliydek ko‘runub, bu toifag‘a qo‘shulmoq biz musulmonlar uchun nihoyatda zararlikdur” (12), deb yozgan edi. 1917-yilda ham bu fikrini quvvatlab “Bizning yer va amlokimizning taqsimini xohlaydirg‘onlarga butun jon va imonimiz ila muqobala qilurmiz” (8), deydi. Hoji Muin esa “Bolsheviklar va biz” sarlavhali maqolasida ularning asl qiyofasi va kirdikorlarini ochib tashlashga harakat qiladi. Publitsist yozadi: “Bolsheviklar ish boshig‘a o‘tib olg‘on kunlarda: “Biz kichik millatlarga tamom hurriyat va istiqol beramiz” deb xitobnomalar vositasila va’da qilg‘on bo‘lsalar ham, bu quruq so‘zlari qog‘oz ustidagina qoldi. Bular hozirgacha hech bir millatning muxtoriyat va istiqololini tasdiq etmadilar, balki bil’aks shunday muxtoriyat va istiqololiat e‘lon etgan millatlarga to‘p va pulemut bilan muqobala etdilar va etmakdadirilar. Mifrat sotsializm maslakinda bo‘lg‘on bolsheviklarning o‘z maslaklarini qabul etmagan millatlarga hurriyat va istiqolol bermasliklari aniq bo‘lib chiqdi” (9). Ko‘rinadiki, siyosiy ahvolni kuzatib borayotgan publitsist xulosalar ham chiqara olgan edi. U “Hurriyat va Istiqolol” kabi so‘zlar qog‘ozlardagina qolib ketayotganligini, bolsheviklar o‘z xohishlarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qon

to'kish yo'li bilan amalga oshirayotganligini yozar ekan, ularning maqsadlarini shunday ifodalaydi: "Bular istaydilar: kim: Rossiya hurriyat va istiqloliyat tilagida bo'lg'on millatlar "sotsializm" prug'romi bilan raftor etsinlar. Ya'ni har millatda va har mamlakatda "ishchi-dehqon vakillarining sho'rosi" degan bir hukumat tashkil qilinib, mamlakatning idorasi shularga topshurilsun. Millat afrodining butun yer, mol va sarvatlari umumiy mulk etib e'lon qilinib, shul "sho'ro" ixtiyorig'a qo'yilsun. Shunday bo'lmag'onda, bular hech bir millatga hurriyat va istiqlo bermas emishlar".

Hoji Muin, oltin vasvasasiga tushgan Lenin boshliq talonchilarning eng asosiy maqsadlarini to'la tushunib yetmagan bo'lsa-da, ularning "g'ayri tabiiy tilaklari, buzuk g'arazlari" borligini his qilgan edi. U bolsheviklar tomonidan Turkiston muxtoriyatining "mullo va burjuazlar" qarori deb tasdiq etilmaganligini, Toshkentda muxtoriyat shodligi uchun o'tkazilgan namoyishda bir qancha begunoh kishilar otib tashlanganini, bu bilan ham muddaolariga yetolmagan bolsheviklar musulmonlar orasida muxolifat tug'dirish uchun turli ig'volar tarqatganligi, biroq bolsheviklarning kimligini anglab yetgan musulmonlar ular tarafiga o'tmaganligini yozadi.

"Yana muning ustinda, — deydi publitsist, — o'z maqsadlarini bolsheviklarga ochiqroq anglatmak uchun Turkistondagi butun musulmon soldat, ishchi va dehqonlar 25-dekabrda Xo'qandda favqulodda bir siezd yasab, siezdga hozir bo'lg'on 200 nafarcha namoyandalar: o'tgan to'rtinchi musulmonlar qurultoyi tarafindan chiqarilg'on qarorlarni haqli topib, Turkiston idora va hokimiyatining darhol muxtoriyat hukumatig'a topshirilmog'iga qaror chiqardilar.

Qani endi ko'raylik! Bu siezdga bolsheviklar qaysi ko'z bilan qaraylar! Nima derlar! Har holda bolsheviklar tek turmaslar. Biror bahona topib, bizning tinchligimizni buzalar, deb gumon qilamiz. Chunki bularning chin muddaolari hanuz hosil bo'lg'on emasdur. Shuning uchun bizlarga kerakkim, bu to'g'rida har ehtimolga qarshi hozirlik ko'raylik. Tamom birlik bilan kuch yig'aylik. O'z hurriyat va muxtoriyatimizni saqlamoq uchun mol va jonimizni fido etmakka hozir bo'lib turaylik".

Afsuski, Hoji Muin istagan birlik va jipslik yo'q edi. Bu Turkiston muxtoriyatiga bo'lgan munosabatda ham yaqqol sezildi. Hoji Muin "Namoyish to'g'risida" (10) sarlavhali maqolasida mana shu bo'linishni afsus bilan yozadi. Samarqanddagi "Ittifoq" jamiyati a'zolari boshqa shaharlardagidek "Turkiston yerli muxtoriyati" munosabati bilan namoyish qilmoqqa qaror qilib "Sho'roi islom" jamiyatiga odam yuboradi. Lekin "Sho'roi islom" jamiyati bu ishga rozilik bermaydi va namoyish qilmaydi. Hoji Muin buning sababini uch narsadan birida deb biladi:

1. Qo'rqqoqlik.
2. Muxtoriyatning fahmig'a bormaslik.
3. Muxtoriyatning vujudga kelishiga ishonmaslik.

Hoji Muin "Sho'roi islom"ni faoliyatsizlikda ayblar ekan, shunday deydi: "Muhtaram "Sho'roi islom" jamiyati shuni ham bilsinki: bu kun Turkiston musulmonlari "muxtoriyat"ga molik bo'ldilar. Shundan keyin "muxtoriyat" bilan birga yasharlar va ushbu yo'lda o'z mol va jonlarini ham ayamalar. Yashasun Turkiston Muxtoriyati!".

Hoji Muinning muxtoriyatga munosabati mana shunday ifodalangan edi. Ko'rinadiki, u ham boshqa jadid ziyolilari kabi muxtoriyatning tinch yo'li bilan saqlanib qolishiga ishongan, umid bilan qaragan. Mahmudxo'ja Behbudiy: "...hozirda joni halvoda shirin kishilarga bashorat berurmizki, muxtoriyat, inshooloh, sulh ila hal qilinur. Muhoraba va muqotala ehtimoli

muxtoriyat vajhidin yo‘q” (13), deya xalqni umidlantirganda, Hoji Muin ham u bilan hamfikir bo‘lgan. Shu bilan birga, bolsheviklar tahlikasini ko‘rib turgan jadid ziyolilari xalqni jipslashtirishga astoydil intildilar. Hoji Muin ham yuqorida tilga olingan “Bolsheviklar va biz” sarlavhali maqolasida “bolsheviklarning chin muddaolari hanuz hosil bo‘lmagan”ligidan mantiqiy xulosalar chiqarib, ularning qon to‘kish yo‘li bilan ish bajarishlarini nazarda tutib, “har ehtimolga qarshi hozirlik ko‘raylik” deya ogohlantiradi. Bu esa uning Qo‘qonda sodir bo‘ladigan qonli voqealarni oldindan taxmin qilganligini, aniqrog‘i, vaziyatni to‘g‘ri baholay olganligini ko‘rsatadi.

Afsuski, ko‘p o‘tmay, Turkistonning fidoyi farzandlari o‘z mol va jonlarini tikkan Muxtoriyat qonga botirildi. Hoji Muinning yuqoridagi maqolalari esa uning sho‘ro davridagi keyingi hayotiga soya tashlaydigan “hujjat”lar qatoriga kirdi.

Hoji Muinning “Hurriyat” gazetasida chop etilgan “Og‘ir hollar”, “Germaniya va Rusiya”, “Rusiya tahlikada”, “Sulh oldinda”, “Islom dunyosining najoti” kabi maqolalari siyosiy sharhlar bo‘lib, ularda Rossiyaning boshqa davlatlar bilan olib borayotgan urushlari, hukmron davlatlarning zaiflashayotgani haqida va “islom dunyosining najot topajagi” haqida umid bilan yozilgan.

Biroq hokimiyat eski mustamlakachilar qo‘lidan yangilariga o‘tdi. Turkistonda bolsheviklar sovet andozasidagi “proletar muxtoriyati”ni e‘lon qilishdi va bu muxtoriyatning afzalliklari haqida keng tashviqot olib borishdi. Bu yo‘lda eng muhim vositan — gazetalar tashkil qilindi. Hoji Muin sho‘ro hukumatining Samarqanddagi nashri bo‘lgan “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida faoliyat yurita boshladi. Ushbu gazetada chop etilgan maqolalar Hoji Muin va safdoshlarining bolsheviklarga bo‘lgan keskin munosabati o‘zgarib borganligini ko‘rsatadi. Hoji Muinning maslakdosh do‘sti Saidrizo Alizoda o‘z maqolalaridan birida: “Sho‘rolar hokimiyati o‘zining burung‘i buzg‘uvchi davrini tugatib, tuzguvchi davriga kirgan va endi mamlakatning taraqqiy va obodlig‘iga kirishib, ishchi va faqir xalq uchun bergan va‘dalariga amal qilmoqqa boshlag‘on bir zamon” (18) kelganligini yozadi. Bu so‘zlarda kinoyadan ko‘ra umid uchqunlari ko‘proq aks etgan, deb o‘ylaymiz. Saidrizo Alizoda va Hoji Muin kabi jurnalistlarning o‘z faoliyatlarini sho‘ro davrida ham fidoyilik bilan davom ettirishlari ularning kelajakka bo‘lgan umidlari hali so‘nmaganligidan, yangi hokimiyatga ishonch bilan qaray boshlaganliklaridan dalolat beradi.

Hoji Muin ham sho‘rolar hukumatining “buzg‘uvchilik” davridan “tuzguvchilik” davriga o‘tganligiga umid bilan qaragani “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida chop etilgan maqolalarida aks etdi. “Bizga nima kerak?” maqolasida Hoji Muin faqir xalq hokimiyatini saqlab qolmoq uchun nima qilmoq kerak, deya savol qo‘yadi va shunday javob beradi: “Hozirgi vazifamizga qarag‘anda, bizga eng avval askar kerakdir. Doxiliy dushmanlarimizning hujumidan vatanimizni qutqarmoq va alarni tasallutindan muqaddas hokimiyatimizni muhofaza etmak uchun biz Turkiston faqir ishchi va dehqonlariga lozimdurki, o‘z oramizdan askariy firqalar tashkil etib jonimiz va nomusimiz kabi aziz bo‘lg‘on huquq va hokimiyatimiz yo‘linda qurbon bo‘lurg‘a hozir turayluk. Dunyoda zolim ostinda nomussiz yashamakdan huquq va hurriyat yo‘linda nomus ila o‘lmak ming marta yaxshiroqdir. Ey, Turkiston ishchisi! Oyoqqa tur! Dushmaningni bos! Yurtingni saqla! Ey turkistonli turk o‘g‘li! Yarog‘ingni ol! Yovingni ot! Hurriyatingni saqla!” (7) Ko‘rinadiki, Hoji Muin erishilgan huquq va hokimiyatni saqlab qolmoq uchun “askariy firqalar” tuzishni, bu firqalar tarkibi esa turkistonlik turk o‘g‘lonlaridan

iborat bo'lishi lozim deb bilgan. Publitsist, aslida, bu askariy firqalarni tuzmoq uchun, eng avvalo, madaniyatning onasi bo'lgan maktab va maorif kerak edi, uning zaminida bolalarda vatanparvarlik hissinini uyg'otib keyin askarlikka olinsa, maqsadga muvofiq bo'lar edi, deydi. Lekin zamon shu qadar shiddatliki, kutib turmaydi. Jondan aziz hurriyat va yurtni saqlamoq uchun askarga ega bo'lmoq zarurdir. Hoji Muin askarlikdan qo'rquvga tushayotganlarga murojaat qilib, askarlikka kirgan bilan "jangga borib o'lmak lozim bo'lmas", balki dushmanlardan himoya qilish uchun zo'r bir askariy quvvat lozimdirki, toki hech kim tajovuz qilishga jur'at etolmasin, deydi. Publitsist askarsiz millatning ojiz va o'zgalarga qaram bo'lib qolishini yevropa jahongirlari mustamlakasiga aylangan Sharq davlatlari misolida ko'rsatib beradi. Shuningdek, Turkistonning "zolim chor hukumati qo'l ostinda asir va zalil" bo'lishining sabablari ham kuchsizlikdan, askarga e'tiborsizlikdan ekanligini yozadi.

Hoji Muin sho'rolar va'da qilgan kelajakka umid bilan qaradi. Biroq uning sho'rolar hukumatiga bo'lgan ishonchi ko'r-ko'rona olqishlash yoki maqtovlar yog'dirishdan iborat emas edi. Uning ushbu hukumatning nashri bo'lgan "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida chop etilgan katta-kichik maqolalari, xabarlari xalqning og'ir ahvoli, talon-torajlar haqida yozilgan bo'lib, bularga, albatta, hukumatning biror tadbiri yoki bu tadbirning noto'g'ri amalga oshirilishi sabab qilib ko'rsatiladi. Ayniqsa, "Haqqoniy" imzosi bilan yozilgan xabarlari o'sha davrdagi ijtimoiy-siyosiy muhitning ro'y-rost tasvirini ko'z oldimizda jonlantiradi. Qizig'i shundaki, bu xabarlarda u xalqdan ko'ra hukumatga ko'proq murojaat etgan, xalqning og'ir ahvoli haqida hukumatni xabardor qilib, biron-bir chora ko'rishni so'rab yozgan. Masalan, "Sholi yo'q", "Mehnatkashlar holidan", "Non", "Achchig' un" kabi xabar va korespondensiyalari shular jumlasidandir. "Mehnatkashlar holidan" xabarida sho'ro ma'murlari tomonidan qishloq bozorchilarining mollari tortib olinayotgani va buning natijasida ularga o'z mahsulotini sotadigan kosiblarning "kun o'tkarmoq jihatidan og'ir ahvolda" qolganligi aytilib, muallif hukumatga murojaat etadi: "Modomiki, hozirgi hukumat faqir xalq tarafdori yoki faqir xalqning o'zi hokimdir, doim faqir xalqqa manfaat yo'llarini ko'rsatib, ularning kasbu korig'a zararli harakatlardan saqlanmog'i kerakdir".

"Shaharda tinchsizlik" maqolasida esa Samarqandda boy va g'ayriboylardan 70 nafarcha kishi qo'lga olinib ishlatmak uchun Ashqobodga yuborilganligi va buning oqibatida ko'pchilikning Buxoro tomonga qochib ketayotganligi va yana qirqdan ortiq kishi qamoqqa olinib hibsda yotganligi, ular ichida nohaq qamalganlar ham borligi yoziladi. "Birovni nohaq qamamoqqa kimning haqqi bor ekan? Nohaq ishlar Nikolay zamonida bo'lar edi. Musovot, adolat va haqqoniyat zamoni bo'lg'on ushbu mehnatkashlar davrinda nohaq hibs va tavfiqlar bo'lmasa kerakdir. Tadbirsizliklarimiz sababli Farg'onada minglarcha gunohsiz kishilarning qoni to'kilgan edi. Endi munda ham shunday bir fojiga yo'l ochmoqchimi bo'lamiz?" Publitsist agar bu ishlardan maqsad boy yoki shubhali kishilarni jazolamoq bo'lsa, gunohi bor kishilar jazolansin, gunohsiz kishilarni qamab, yana ozod etib xalqqa tashvish berilmasin va faqir xalqning ixlosini hukumatdan qaytmog'iga bois bo'linmasin, deydi.

Ma'lumki, bolsheviklar "harbiy kommunizm" siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida umumiy mehnat majburiyatini joriy qildilar (16, 108). Turkistonda ham "Umumiy mehnat majburiyatini hayotga tatbiq etish to'g'risida" qaror qabul qilindi. Unga binoan 15 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan barcha erkak va ayollar hisobga olinib, "ekspluatatsiya

qiluvchi unsurlar” hamda ishsizlar majburiy mehnatga jalb qilinadi. Pala-partishlik bilan olib borilgan bu “mehnat majburiyati” odamlarni hatto masjidlarda qurshab tutib olib, amalga oshirilgan. Hoji Muinning yuqorida tilga olingan “Shaharda tinchsizlik” maqolasi ushbu hodisalarning bir tasviri edi.

1921-yilga kelib, Hoji Muinning sho‘rolar hukumatiga bo‘lgan ishonch va umidlari puchga chiqqanligini ko‘ramiz. Uning “So‘z, qaror va ish” sarlavhali maqolasi keskin xulosalar bilan hukumatdan norozi bir kayfiyatda yozilgan. Maqolada publitsist “Maorif va madaniyatga nihoyat darajada suvsag‘on Turkistonda uch yarim yillik inqilob davrinda ezilgan xalqning taraqqiy va taoliysi uchun nima ishlar qilindi?” (14) deya savol qo‘yadi va afsus bilan shunday javob beradi: “Bu ulug‘ savolg‘a achchiq bo‘lsa-da, tubandagi so‘zlardan boshqa to‘g‘riroq javob topa olmaymiz. Bu uch yarim yillik inqilobiy davrda ko‘b so‘zlar so‘ylandi, mitinglar qilindi, tashviqotlar etildi. Va g‘oyat mutaraqqiy yaxshi qarorlar chiqarildi, lekin yo‘q darajasida oz ish qilindi. Maqtanurlik va iftixor eturlik ishlar hanuz qilinmadi. Xalqning oldin borishi, yurtning tinchlanmog‘i va kuchli bo‘lmog‘i: maorif, askarlik, iqtisod va dehqonchilik ishlarining tuzuk bir-biriga qo‘shilishi bilan bo‘ladurkim, maaltaassuf, bu to‘g‘rilarda hanuz xalq uchun foydali va ko‘zga ko‘rinurlik ishlar qiling‘on emas”.

Hoji Muin ushbu maqolasida maorif, askarlik, iqtisod, dehqonchilik va til masalasi haqida so‘z yuritadi. Chunki u davlatni mustahkamlash, millatni yuksaltirish uchun mana shu besh narsani rivojlantirish lozim, deb biladi. Bu haqda u sho‘rolar hukumati yangi tuzilgan davrdayoq takror-takror yozgan edi. Mazkur maqolada esa ularning birortasida rivojlanish yoki o‘zgarish ko‘rmayotganligini aytadi. Sho‘rolar hukumati va‘da qilgan maorif ishlaridagi “inqilob” hanuz amalga oshmay keladi. “Maorif ishlari g‘oyat parishon bir holdadir. Maktab bor, durust muallim yo‘q. Talaba bor, lekin keraklik kitob yo‘q”, deydi. Askarlik ishlari esa undanda natijasiz bir holda ekanligi, markazda chiqarilgan “yaxshi” qarorlarning amalga oshmayotganligi haqida kuyinib yozadi: “Askarlik jihatidan holimiz undan ham yomondir. Holbuki, yurtni saqlamoq va xalqning tinchligini tayin etmak uchun askar kerakdir. Turkistonning yerli aholisindan askar olmoq uchun markazda yaxshi qarorlar chiqarilg‘on va bultur askar olina boshlag‘on bo‘lsa-da, bu ishdan hanuz yaxshi bir natija ko‘ra olg‘onimiz yo‘q”.

Shuningdek, dehqonchilik ishlari haqida ham iztirob bilan yozadi. Dehqonchilik, ziroat ishlarida amalga oshirilgan noto‘g‘ri tadbirlar, boshboshdoqliklar to‘g‘risida haqiqatni yozishdan qo‘rqmaydi: “Ziroat ishlari avvalgi holidan ham necha daraja keyinda qoldi. Biz inqilob davrinda ziroat ishlarini bir yo‘lg‘a solmoq o‘rnida dehqonlarni taladiq. Ot va ho‘kizlarini oldiq, otryadlar yuborib dehqonlarni tayoq osti qildiq, xotun-bola-chaqalarining or va nomusiga tajovuz etdurdik. Oxiri, bu ishlarimizning xato ekanligini bilib, endi ular bilan to‘g‘ri muomala etarga boshladiq va ularga yordam bermaklik lozimligini angladik”. Dehqonlarning og‘ir ahvoli Hoji Muinni avval ham tashvishga solgan, bu borada bir necha maqolalar ham yozgan edi. “Faqir dehqonlarga yordam kerak”, “Dehqonlarga yordam kerak” kabi maqolalarida bor-budi talangan dehqonlarning ahvoli haqida hukumatni ogohlantirib, ularni urug‘ va kerakli asboblardan tezroq ta‘minlash lozimligini, yo‘qsa ekin vaqti o‘tib, ocharchilik kelib chiqishiga sabab bo‘lishi mumkinligini qayta-qayta ta‘kidlab, hukumatning bu boradagi sustkashligini ko‘rib “markazga so‘z bilan emas, ish bilan itoat lozimdir” (6), deb yozgan edi.

Hoji Muin til masalasi haqida ham alohida to'xtalib o'tadi. Yangi tuzilgan Sho'rolar hukumati dastlabki muammolar qatorida o'zbek tilini rus tili bilan bir o'rinda davlat tili deb qabul qilish haqida 1918-yilda dekret chiqardi. Hoji Muin muharrirlik qilayotgan "Mehnatkashlar tovushi" gazetasida bu dekret chop etildi. Shu munosabat bilan publitsist ushbu sohadagi qiyinchiliklar va ularning yechimlari haqida ko'p yozgan edi. Lekin 1921-yilga kelib hamon bu muammoning yechimsiz qolayotganligidan afsus bilan shunday yozadi: "Turkistonda aksar aholi musulmon bo'ldig'i e'tiborga olinib, mundan uch yil burun turkcha til rasmiy davlat tili deb e'lon etilsa-da, buni amalga kirgizmak uchun hanuz jiddiy tadbir ko'rolmadik. Balki bu "eski hammom – eski tos" mazmunicha ko'p mahkama va idoralarda hanuz rus tili hukmfarmoyishdadir. Hukumatning idora va mahkamalarida turkiy tilni ishlatmak uchun boshlab tarjimonlar, mirzolar va bug'altirlar yetishdurmak kerak edi va muning uchun kerakli ishlar hozirlamak lozim ediki, maaltaassuf, bu ishlar bu kungacha ishlanmadi" (3).

Maqola so'ngida "...biz hanuz "so'z" va "qaror" davrida bo'lib, bu uch yarim yilliq inqilob zamonida buyruq, qarordan boshqa jiddiy va foydali biror ish qila olmagan va boshlag'on ishlarimizni tinchlik bir yo'lg'a qo'ya olmagan ekanmiz. Endi quruq so'z va qarorlardan to'ydiq", deb xulosa qiladi. Ushbu tanqidiy maqola uning muharrirlikdan ketishining asosiy sabablaridan biri bo'lgan. Maqoladan ko'rinadiki, 1921-yilga kelib, Hoji Muinning sho'rolar hukumatiga bo'lgan ishonch va umidlari so'ngan, unda hukumatdan norozilik kayfiyati kuchaygan edi. Publisist 1929–1932-yillarda qamalib chiqqandan keyin matbuotida maqolalari bilan deyarli qatnashmadi. Uning o'zi musahhihlik qilgan "Qizil yulduz" gazetasida chop etilgan "Ishonaman" sarlavhali she'ri partiyaga, uning "dohiy"lariga bo'lgan "muhabbatining isboti" sifatida yozildi.

Biroq partiya uning bu "tavba"sini qabul qilmadi. 1937-yili boshqa ziyolilar qatori Hoji Muin ham hibsga olindi. 1938-yilda o'n yilga qamoq jazosiga hukm qilindi. U Vatanidan yiroqda, ozodlikdan mahrum bir holda xastalanib vafot etdi.

Xulosa. 1917-yil fevral voqealaridan keyin Hoji Muin ham o'z ustozlari va safdoshlari kabi yurtning ozodligi, millatning erki uchun oshkora kurashish mavridi kelganligini his qilib, siyosiy jabhada faoliyatga kirishdi. Publitsistning xalqni uyg'onishga, erk va ozodlik uchun kurashga chorlaydigan, shu bilan birga, o'z davrining dolzarb voqealari, siyosiy o'zgarishlari tahlil qilingan maqolalari "Hurriyat" gazetasida uzluksiz chop etilib turdi. Bu maqolalarda u bolsheviklarga qarshi keskin munosabat bildirdi, ularning kimligini, kirdikorlarini ochib tashladi. Turkiston muxtoriyatini sidqidildan qo'llab-quvvatladi. Uni saqlab qolish uchun xalqni jipslikka chaqirib, otashin maqolalar yozdi.

Sho'rolar hokimiyati o'rnatilgandan so'ng uning nashri bo'lgan gazetada faoliyat yuritisa-da, yangi tuzumni madh etishga butunlay kirishib ketmadi. Publitsistning yangi tuzumga ishonch va uni olqishlash hollari ifodalangan maqolalari ham xolislik va haqqoniylik mezonlaridan uzoqlashmagan. Publitsist xalqning turmushini, hukumatning ishlarini har doim kuzatib bordi. Xalqning og'ir ahvolidan hukumatni xabardor qilishga, hukumatning esa ayrim qarorlarini xalqqa tushuntirib berishga harakat qildi. Hukumat idoralaridagi boshboshdoqliklar, faoliyatsizliklarni tanqid qildi. Tanqidiy maqolalari tufayli sovetlarning qora ro'yxatiga tushdi. U qaysi tuzumda yashamasin, qaysi sohada ishlamasin, xalq manfaatini o'ylab yashagan fidoyi millatparvar sifatida navoyon bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurauf Fitrat. Siyosiy hollar // *Hurriyat*. 1917. 8 noyabr.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar. — T.: Ma'naviyat, 2000. — 214 b.
3. Davlat lisoni haqida dekret // *Mehnatkashlar tovushi*. 1918. 3 sent.
4. Fitrat. Saylov munosabati bilan // *Hurriyat*. 1917. 23 avg.
5. Fitrat. Shroi islomning xatosi // *Hurriyat*. 1917. 1 dek.
6. Hoji Muin Deputonlarla yordam kerak // *Mehnatkashlar tovushi*. 1921. 22 mart.
7. Hoji Muin Srz, iaror va ish // *Mehnatkashlar tovushi*. 1921. 26 may.
8. Hoji Muin. Bizga nima kerak? // *Mehnatkashlar tovushi*. 1918. 13 avg.
9. Hoji Muin. Bolsheviklar va biz // *Hurriyat*. 1917. 1 yanv.
10. Hoji Muin. Namoyish to'g'risida // *Hurriyat*. 1917. 16 dek.
11. Hoji Muin. Yurt qayg'usi // *Hurriyat*. 1917. 10 noyabr.
12. Mahmudxo'ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. — T.: Ma'naviyat, 1999. B.149.
13. Mahmudxo'ja Behbudiy. Turkiston muxtoriyati // *Hurriyat*. 1917. 22 dek.
14. Mahmudxo'ja Behbudiy. Turkiston muxtoriyati // *Hurriyat*. 1917. 22 dek.
15. Mimuhsin Shermuhamedov. Yurt qayg'usi // *Hurriyat*. 1917. 3 noyabr.
16. O'zbekistonning yangi tarixi. 2-kitob. — T.: Sharq, 2000. — 108 b.
17. Sadriddin Ayniy. Mahmudxo'ja Behbudiy hazratlarining qisqacha tarjimai holi // *Mehnatkashlar tovushi*. 1920. 8 apr.
18. Sayidrizo Alizoda. Ashqabod fitnasi // *Mehnatkashlar tovushi*. 1918. 30 iyul.
19. Solihov M. O'zbek teatri tarixi uchun materiallar. — T.: O'zSSR Davlat nashriyoti, 1935. — 122 b.
20. Zahmatkashlar ittifoqi jamiyati // *Hurriyat*. 1917. 4 avg.

References

1. Abdurauf Fitrat. *Hurriyat*, November, 8, 1917.
2. Abdurauf Fitrat. *Tanlangan asarlar* (Selected Works), Tashkent: Ma'naviyat, 2000. 214 p.
3. *Davlat lisoni haqida dekret. Mehnatkashlar tovushi* (Decree on State Language, Sound of Workers), September, 3, 1918.
4. Fitrat. *Hurriyat*, August, 23, 1917.
5. Fitrat. *Hurriyat*, December, 1, 1917.
6. Hoji Muin Deputonlarla yordam kerak, *Mehnatkashlar tovushi*. Mart, 22, 1921.
7. Hoji Muin Srz, iaror va ish, *Mehnatkashlar tovushi*. May, 26, 1921.
8. Hoji Muin. Bizga nima kerak? *Mehnatkashlar tovushi*. August, 3, 1918.
9. Hoji Muin. *Hurriyat*, January, 1, 1917.
10. Hoji Muin. *Hurriyat*, December, 16, 1917.
11. Hoji Muin. *Hurriyat*, November, 10, 1917.
12. Mahmudxo'ja Behbudiy. *Tanlangan asarlar* (Selected works), Tashkent: Ma'naviyat, 1999, 149 p.
13. Mahmudxo'ja Behbudiy. *Hurriyat*, December, 22, 1917.
14. Mahmudxo'ja Behbudiy. *Hurriyat*, December, 22, 1917.
15. Mimuhsin Shermuhamedov. *Hurriyat*, November, 3, 1917.
16. *Uzbekistonning yangi tarixi, 2-kitob* (New History of Uzbekistan. 2^d book), Tashkent: Sharq, 2000, 108 p.
17. Sadriddin Ayniy. *Mehnatkashlar tovushi*. April, 8, 1920.
18. Sayidrizo Alizoda. *Mehnatkashlar tovushi*, July, 30, 1918.

19. Solihov M. *Uzbek teatri tarixi uchun materiallar* (Materials for the history of the Uzbek theater), Tashkent: UzSSR Davlat nashriyoti, 1935, 122 p.
20. Zahmatkashlar ittifoqi jamiyati // *Hurriyat*. August, 4, 1917.